

MUQOBIL TURIZM: KELAJAK UCHUN QIYINCHILIKLAR VA IMKONIYATLAR



Geologik turizm



Sanoat turizmi



Agrar turizm



Astronomik turizm



Tarixiy-harbiy turizm



Arxeologik turizm

2026-YIL 21-23-MAY

AXBOROT XATI

Hurmatli hamkasblar!

Sizni **“Muqobil turizm: kelajak uchun chaqiriqlar va imkoniyatlar”** xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida ishtirok etishga taklif etamiz!

“Muqobil turizm: kelajak uchun chaqiriqlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasining turizmni barqaror rivojlantirish va yangi sayyohlik yo‘nalishlarini joriy etish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish doirasida amalga oshirilmoqda. Konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentyabrdagi **“Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi 582-sonli qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi **“O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PQ-348-sonli qaroriga muvofiq o‘tkazilmoqda.

KONFERENSIYANING ASOSIY MAQSADLARI:

Konferensiyaning asosiy maqsadi turizmning muqobil turlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy bilim va amaliy tajriba almashish, dolzarb muammolar va istiqbollarni muhokama qilish, shuningdek, barqaror rivojlanish sharoitida mamlakatning turizm salohiyatidan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni shakllantirishdan iborat. Konferensiya ilmiy, ta‘lim va professional hamjamiyatlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va turizmning muqobil turlari sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga qaratilgan.

ISHTIROK ETISHGA TAKLIF ETILADI:

Tadqiqotchilar, yosh olimlar, doktorantlar, professor-o‘qituvchilar, tibbiyot muassasalari, turizm tashkilotlari, hokimiyat organlari vakillari, shuningdek, ixtisoslik yo‘nalishlari talabalari.

KONFERENSIYA ISH TILLARI: O‘zbek, Rus va Ingliz tillari.

KONFERENSIYANING ASOSIY YO‘NALISHLARI

1. Geologik turizm: tabiiy meros va resurslardan barqaror foydalanish

- ❖ geologik meros asosida turistik destinatsiyalarni shakllantirish;
- ❖ geoparklar va ularning mintaqaviy rivojlanishdagi roli;
- ❖ noyob tabiiy landshaftlarni saqlab qolish;
- ❖ geologik merosni ilmiy talqin qilish va ommalashtirish.

2. Sanoat turizmi: sanoat obyektlaridan turistik yo‘nalishlargacha

- ❖ sanoat merosi asosida innovatsion turistik mahsulotlarni rivojlantirish;
- ❖ zavod va fabrikalarni turistik makonlarga aylantirish;
- ❖ sanoat turizmi B2B va ta’lim tashabbuslari uchun platforma sifatida;
- ❖ industrial marshrutlarda vizualizatsiyaning innovatsion texnologiyalari va xavfsizlik standartlari.

3. Agrar turizm: qishloq hududlarining barqaror rivojlanishi va innovatsion transformatsiyasi

- ❖ agroturizm barqaror rivojlanish omili sifatida;
- ❖ fermer xo‘jaliklari va gastronomik yo‘nalishlar;
- ❖ agroturizm raqamli texnologiyalar;
- ❖ institutsional hamkorlik va davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.

4. Astronomik turizm: observatoriylar, ilmiy-ma’rifiy yo‘nalishlar va ilm-fanni ommalashtirish

- ❖ astronomik observatoriylar turistik markazlar sifatida;
- ❖ ilmiy-ma’rifiy turizmni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari;
- ❖ astronomiya festivallari va tadbirlari;
- ❖ raqamli texnologiyalar va ilm-fanni ommalashtirish.

5. Tarixiy-harbiy turizm: tarixiy xotirani saqlash va turistik yoʻnalishlarni rivojlantirish

- ❖ xotira marshrutlari va yodgorlik majmualari;
- ❖ tarixiy rekonstruksiya;
- ❖ axloqiy jihatlar;
- ❖ harbiy-tarixiy merosni raqamlashtirish.

6. Arxeologik turizm: madaniy merosni saqlash va barqaror foydalanish

- ❖ arxeologiya obyektlari turistik destinatsiyalar sifatida;
- ❖ saqlash va foydalanish balansi;
- ❖ ilmiy institutlar va muzeylarning ishtiroki;
- ❖ xalqaro arxeologik loyihalar va ilmiy hamkorlik mexanizmlari.

TASHKILOTCHI: Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti

KONFERENSIYA HAMKORLARI:

- Oʻzbekiston Respublikasi Turizm Qoʻmitasi
- Toshkent davlat agrar universiteti

HAMKOR TASHKILOTCHI: Science and Innovation xalqaro ilmiy jurnali

KONFERENSIYA SANALARI: 2026-yil 21–23-may

MATERIALLARNI QABUL QILISH MUDDATI: 2025-yil 1-maygacha

OʻTKAZILISH JOYI: Toshkent davlat agrar universiteti (Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet koʻchasi, 2-uy)

ROʻYXATDAN OʻTISH VA MATERIALLARNI TOPSHIRISH UCHUN:

- Konferensiyada ishtirok etish **bepul**.
- **Materiallarni topshirish uchun:**

Gordeyeva Yelena Anatolevna: **+998 50 511 25 52**

helena-gordeeva@inbox.ru

Xaydaraliyeva Asila: **+998 50 055 17 05**

Telegram: @Science_qabul2

Elektron pochta: info@scientists.uz

MATERIALLARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI:

Materiallar MS Word-2003, 2007 (DOC, DOCX) formatida bo‘lishi lozim, shrift — Times New Roman, o‘lchami 14, abzas — 1 sm, satrlar oralig‘i — 1, sahifaning har tomonidan 2 sm. Tezis hajmi (jadval, rasm, chizma va internet manbalari bilan birga) kamida 6–8 bet, tezis teksti — 3 bet bo‘lishi kerak.

Familiya, ism, otasining ismi (to‘liq), ilmiy daraja, ilmiy unvon, lavozimi, oliy ta‘lim muassasasi yoki tashkilot nomi — birinchi sahifaning o‘ng yuqori burchagida; tezis sarlavhasi uchta tilda — markazda, qalin shriftida; asosiy matn; alifbo tartibida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati. Manbalarga havolalar asosiy matnda shakl (Vudman, 2015. 312-b) bo‘yicha keltirilishi kerak. Faqat muallif tomonidan tahrir qilingan va tashkiliy qo‘mita tomonidan tavsiya etilgan tezislarni chop etiladi. Taqdim etilgan tezis mazmunining ishonchliligi uchun muallif to‘liq javobgardir. Konferensiya materiallari to‘plami PDF formatida mualliflarga taqdim etiladi.

KONFERENSIYA MATERIALLARINI INDEKSLASH:

Konferensiyaga qabul qilingan har bir tezis Polshaning **Index Copernicus**, Yevropaning **Zenodo** va **OpenAIRE** xalqaro bazalarida, **ilmiyanjumanlar.uz** platformasiga joylashtiriladi va **Google Scholar** xalqaro qidiruv tizimida indekslanadi.

Har bir tezisga alohida **DOI** raqami beriladi.

Har bir muallifga **elektron sertifikat, indekslash sertifikati va tezisning indekslangan PDF nusxasi** taqdim etiladi.

Konferensiya materiallari elektron va bosma ko‘rinishda chop etiladi.

NASHR TO‘LOVI: O‘zbekistonlik ishtirokchilar uchun: **200 000 so‘m**, xorijlik ishtirokchilar uchun: **bepul**.

**Sizning O‘zbekistonda muqobil turizm yo‘nalishlarini rivojlantirishdagi
ishtirokingiz va ilmiy-amaliy hissangizdan mamnunmiz.**

Hurmat bilan, konferensiya tashkiliy qo‘mitasi!